

Diniy Bag‘Rikenglik Islom Asosi

Nishanova Dildora Komiljanovna¹

Annotation: Maqolada diniy bag‘rikenglik tushunchasi va uning mazmuni, Islom dinidagi ahamiyati hamda Qur‘an oyatlari va hadislar orqali yoritilishi muhokama qilinadi. Diniy bag‘rikenglik nafaqat odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, balki jamiyatda tinchlik va totuvlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Yurtimizda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlashga qaratilgan e‘tibor, o‘zaro hurmat va hamjihatlikni oshirishga qaratilgan islohotlar haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Maqola, shuningdek, xalqaro tajribalar va tarixiy misollar orqali bag‘rikenglikni rivojlantirish, diversitetni qadrlash va dini ishtiyoqni hurmat qilish zarurligini ta‘kidlaydi. Diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik masalalari bugungi kunda dolzarbligini saqlab qolayotganiga diqqat qaratilgan.

Keywords: diniy bag‘rikenglik, millarlararo totuvlik, vijdon erkinligi, Qur‘oni Karim, Hadisi sharif

Kirish.

Diniy bag‘rikenglik — bu odamlarning o‘zaro munosabatlarini mustahkamlash va jamiyatdagi tinchlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydigan tushunchadir. Diniy bag‘rikenglik, turli din vakillari e‘tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qat‘iy nazar, ularning yonma-yon va o‘zaro tinch-totuv yashashini anglatadi. Har kim o‘z e‘tiqodiga amal qilishda erkin bo‘lishi sharti bilan, bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini e‘tirof etishi kerak. “Bag‘rikenglik” tushunchasi, turli tillarda bir xil yoki bir-birini to‘ldiruvchi ma‘no kasb etib, “chidamlilik”, “bardoshlilik”, “toqatlilik”, “o‘zgacha qarashlar va harakatlarga xurmat bilan munosabatda bo‘lish”, “muruvvatlilik”, “himmatlilik”, “kechirimlilik”, kabi ma‘nolarga ham ega. Diniy bag‘rikenglik vijdon erkinligi va ma‘naviyat jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. U boshqa shaxs yo‘dinga hurmatni bildiradi.

Turli din hamda konfessiya vakillari e‘tiqodida aqidaviy farqlar bo‘lishiga qaramay, ularning yonma-yon va o‘zaro tinch-totuv yashashini anglatadi. Buning uchun turli dinlarning tushunchalarini hurmat qilish va mulozimlariga hurmatni bildirish zarur. Diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik masalalari bugungi kunda dolzarbligini saqlab qolmoqda. Islom dini tinchlik va osoyishtalikka kuchli e‘tibor qaratishi bilan bir qatorda, bag‘rikenglik tamoyiliga asoslanadi. Islom dini har bir insonni millati, irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘i nazar, birdamlikka, o‘zaro yaxshilik qilishga undaydi. Jumladan, islom dinidagi “jamoatdan ajralmaslik”, “odamlarning yaratgan oldidagi tengligi” g‘oyasi buning yorqin misolidir. Barcha insonlar jinsi, irqi, rangi, ijtimoiy kelib chiqishiga qaramay, barobar hisoblanadi. Bu haqda hadislar: «Insonlar taroq tishlari kabi tengdirlar. Arabning boshqa xalqlardan, oqning qoradan, erkakning ayoldan ustunligi yo‘q. Faqat, taqvoda xolos», deyilgan.

Materiallar.

Qur‘onda, “Rum” surasining 22-oyatida odamlar tili va rangidagi farq Yaratganning mo‘jizasi ekani ta‘kidlangan. Milliy va diniy rang-baranglik hamda e‘tiqod erkinligini qaror toptirish masalasida Qur‘on butunlay bag‘rikenglik ruhi bilan sug‘orilgan, desak mubolag‘a emas. Alloh, dastlab, odamzodni bir ummat qilib yaratdi, so‘ngra kishilarni turli qabila, xalq va dinga ajratdi. Bunday rang-baranglikdan maqsad insonlarni umumiy farovonlik yo‘lida o‘zaro musobaqalashishga targ‘ib qilishdan iborat. “Agar Rabbingiz xohlasa edi, Yer (yuzi)dagi barcha kishilar yoppasiga imon keltirgan bo‘lur edilar. Bas, Siz odamlarni mo‘min bo‘lishlariga majbur qilasizmi?!” (Yunus, 99) oyatidan turli-

¹ PhD, Oriental Universiteti v.b. dotsenti



tuman, Yaratgan tomonidan o'rnatilgan dinlarni bekor qilish yoki hammani bir din bayrog'i ostida zo'rlab birlashtirish mumkin emasligi kelib chiqadi.

Islom ilk paydo bo'lgan davridayoq bag'rikenglik dini sifatida namoyon bo'ldi. Jahon dinlarining ichida faqat Islomda e'tiqod erkinligi ochiq-oydin e'lon qilingan: Baqara surasining 256-oyatida: «Dinda zo'rlash yo'q»-deyilgan. Payg'ambarimiz (s.a.v) bu borada islom ummatigagina emas, butun insoniyatga ibrat-namuna bo'ldilar. U zot Madinaga hijrat qilganlarida davlat ishlaridagi birinchi ishlari o'sha yerlik yahudiylar bilan ularning aqidalarini hurmat qilishga asoslangan ahdnoma tuzish bo'ldi. Janob Rasululloh ahli kitobdan bo'lgan qo'shnilar bilan yaxshi munosabatda bo'lar, hadya berib, ulardan ham qabul qildilar. Madinaga Habashiston nasroniylarining vakillari kelganida, ularni masjidga tushirib ziyofat berdilar va xizmatlarini qildilar. Hattoki Najron nasroniylari kelganida, ularga masjidning bir tomonida ibodat qilishga ijozat berdilar. Rasululloh o'zlari namuna bo'lgan holda butun ummatni insonlar o'rtasidagi munosabatda halimlikka, bag'rikenglikka chaqirdi.

Islomda bag'rikenglik masalasi juda muhim o'rin tutadi. Islom kishilarni birdamlikka, yaxshilikka, ahillikka chaqiradi. Alloh taolo Qur'oni karimning «Hujurot» surasida: “Ey insonlar, men sizlarni har xil elatlar, xalqlar qildim, bir-birlaring bilan tanishinglar, ma'rifat hosil qilinglar deb”, deya marhamat qiladi. Darhaqiqat, Islomda zo'ravonlik, o'zgaga zulm yetkazish yo'q. Hattoki insonlarni dinga zo'rlik bilan chaqirish ham mumkin emas. Haqiqiy musulmon, o'zini Islomda deb bilgan kishilarning shiori tinchlik bo'lishi kerak. Musulmon odam, hadisga muvofiq, o'zgalarga tili bilan ham, qo'li bilan ham ozor yetkazmasligi kerak. Aksincha, mo'min odam atrofdagilarga faqat manfaat yetkazishi zarur. Payg'ambar alayhissalom: “Din bu – husni xulqdir”, deganlar. Ya'ni din bu odobdir, axloqdir, insoniylikning go'zal tajassumidir.

Tadqiqot va usullar.

Islomning bag'rikenglik va osonlik sifati o'zi yetib borgan yerlarda keng tarqalishi va boqiy qolishiga sabab bo'ldi. Islom dinini talablarini to'liq anglagan ajdodlarimiz tarixini o'rganadigan bo'lsak, yurtimizda xech qaysi davrda nasroniylarning cherkovi, yahudiylarning sinagogi yoki boshqa ibodatxonalar vayron etilmagan, islom o'lkalarida har bir din vakiliga erkinlik ta'minlangan, birorta shaxs tomonidan o'z aqidasi boshqalarga majburan singdirilishiga yo'l qo'yilmagan. E'tirof etish kerakki, bag'rikenglik borasida o'zbek zamini azaldan namuna bo'lib kelgan.

Islom tinchlik demakdir. Tinchlik, osoyishtalik, bag'rikenglik, tolerantlik islom dinidagi muqaddas manbalarining har bir kalimasida o'z ifodasini topgan. Alloh taolo o'z bandalarini o'zaro bahamjihatlikka, do'stlik va hamkorlikka, tinchlikka da'vat etib: “Agar mo'minlardan ikki toifa o'zaro urushib qolsalar, darhol ular o'rtasini isloh etingiz!”, – deb marhamat qiladi. Yaratganning ushbu muborak kalomidan ham bag'rikenglik, ahillikning naqadar bebaho, insonning ma'naviy-axloqiy, ilmiy va aqliy rivojida benazir ahamiyatga ega ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, barcha ilmiy yuksalishlar, Sharqda va G'arbda yuz bergan Uyg'onish davrlarining asosida dinlararo muloqot va bag'rikenglik omili turganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, islom olamida VIII asrga kelib yunon, fors, hind va boshqa madaniyatlarga oid ko'p sonli asarlar arab tiliga tarjima qilinib, islom olamining taraqqiyoti yo'lida safarbar qilindi. IX-XII asrlardagi birinchi Sharq Renessansi, Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan sohasidagi taraqqiyotga ham turli din olimlarining xizmati beqiyos ekanligini alohida qayd etish joiz.

Islom dinida barcha xalqlar dini, irqi, millatidan qat'iy nazar, o'zaro hamkor yashashga buyurilgan. Alloh taolo bunday marhamat qiladi: “Ey, insonlar! Darhaqiqat, Biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havo)dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishishingiz uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila (elat)lar qilib qo'ydik. Albatta, Alloh nazdida (eng azizu) mukarramrog'ingiz taqvodarroq'ingizdir. Albatta, Alloh biluvchi va xabardor zotdir”. (Hujurot,13).

“Ankabut” surasi 46-oyatida esa: “(Ey, mo'minlar!) Sizlar ahli kitoblar bilan faqat eng chiroyli uslubda munozara qilingiz, illo ularning orasidagi zulm (tajovuz) qilganlar bundan mustasnodirlar...”, deyilgan.



Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam boshqa din vakillariga ozor berishdan qaytarib, ummatlariga bag'rikenglikning yuksak namunalarini ko'rsatganlar. Abu Zarr roziyallohu anhu bir sahobani: "Ey qoraning o'g'li", deganlarida, bu gapdan xabardor bo'lgan Rasuli akram alayhissalom "Senda johiliyat odati bor ekan!", dedilar. Bu bilan musulmon kishida irqchilik, millatchilik, mahalliychilik ko'rinishida biror so'z yoki harakat bo'lmasligini ta'kidladilar.

Qur'oni karimning qator oyatlarida ham boshqa din vakillariga nisbatan yaxshi muomala va munosabatda bo'lishga chaqiriladi. Jumladan, Mumtahana surasining 8 oyatida: "Din to'g'risida sizlar bilan urushmagan va sizlarni o'z yurtigingizdan (haydab) chiqarmagan kimsalarga nisbatan yaxshilik qilishingiz va ularga adolatli bo'lishingizdan Alloh sizlarni qaytarmas. Albatta, Alloh adolatli kishilarni sevar", deyiladi. Ushbu oyat Islom naqadar insonparvar va bag'rikeng din ekanini, o'zga din vakillariga doimo yaxshi munosabatda bo'lish lozimligini ko'rsatadi.

Shunga ko'ra, Payg'ambar alayhissalom boshqa din vakillari bilan tinch-totuv, jamiyat uchun manfaatli hamkorliklar asosida yashashga harakat qilardilar. U zot: "Men ularni o'zim hurmat izzat qilishni xush ko'raman" deb Habashistondan kelgan nasroniy mehmonlarga shaxsan o'zlari xizmat qilganlar. Najron nosrolari guruhini ham o'z masjidlariga tushurib, u yerda ibodat qilishlariga ruxsat berganlar.

Natijalar.

Hadisi sharifda: "Alloh taolo bandalarini mol-dunyosiga, kiyadigan kiyimiga qarab emas, qalbini pokligi-yu, qiladigan yaxshi amaliga qaraydi" deyiladi. Ushbu hadisdan shuni anglash mumkinki, kishi oqko'ngil bo'lishga, boshqalarga yaxshi ko'z bilan qarab, do'stona aloqalarni bog'lashga harakat qilishi lozim ekan.

Tarix davomida ulkan hududlarni boshqargan musulmon hukmdorlar boshqa dinlarning vakillariga favqulodda hurmat va bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishgan. Islom davlatlarida yashagan nasroniy va yahudiy dinidagilar hamisha to'la xavfsizlikda, tinch-osoyishta yashab kelishgan, diniy marosimlarini bemalol o'tkazishgan. Buni G'arb tarixchilari va tadqiqotchilari ham, ahli kitoblarning ruhoniylari ham ochiq tan olib yozishgan.

Abu Mansur Moturidiy (870-944) Haj surasi 40-oyati tafsirida: "Cherkov va sinagogalarni vayron qilish man etiladi. Shuning uchun ham musulmonlar yurtida shu davrgacha ular buzilmay saqlanib qolgan. Bu masalada ahli ilm orasida ixtilof yo'qdir", deb yozib qoldirgan. Buxoroda ilk sinagoga milodiy VIII asr boshlarida qurilgan. Yahudiy jamoasi vakili bu haqda bunday deb ko'rsatadi: "O'rta asr Ovrupasi va Vizantiya imperiyasidan quvg'in qilingan yahudiylik Markaziy Osiyoda boshqa dinlar bilan bir xil huquqqa ega edi" Milodiy VII asr boshlarida Termiz va uning atrofiga 10 ta buddaviylik ibodatxonaci bo'lib, minggayaqin rohib xizmat qilgani manbalardan ma'lum.

Islom dini o'zga din vakillari bilan bo'ladigan kundalik aloqalarga alohida urg'u bergan. Xususan, qo'shnichilik aloqalari, ahli kitoblarning taomidan iste'mol qilish, ularga uylanish mumkin ekani, ularni g'iybat qilish ham gunoh ekani, moliyaviy aloqalar o'rnatish, ulardan qarz olish, qarz berish, ularga omonat qo'yish, musulmon bo'lmagan kishini maqtash kabi masalalarda oyat va hadislar kelgan.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam boshqa din vakillari tomonidan hadya qilingan kiyimlarni kiyib yurganlari ma'lum va mashhur. Sa'd ibn Ibrohimdan rivoyat qilinadi: "Muqavqis Nabi sollallohu alayhi vasallamga hadya yubordi. Bas, u zot uni qabul qildilar". Ibn Abu Shayba rivoyat qilgan. Imom Saraxsiy "Mabsut"da quyidagi rivoyatni keltirgan: "Nabi sollallohu alayhi vasallamning Muqavqis hadya qilgan choponlari bor edi. Ul zot uni hayit va juma kunlari hamda huzurlariga elchilar kelganida kiyar edilar".

Imom Buxoriy hazratlari o'zlarining "al-Adab al-Mufrad" kitoblarida shunday hadisni rivoyat qiladi: Mujohid aytadi: Men Abdulloh ibn Amr raziyallohu anhuning huzurida edim. Uning xizmatchisi bir qo'yni so'yib, uning terisini shilayotgan edi. Abdulloh ibn Amr raziyallohu anhu xizmatchiga qarab: Qo'yni so'yib bo'lgach go'shtni birinchi bo'lib yahudiy qo'shnimizdan boshlab tarqat, dedi. O'sha yerda turganlardan biri: "Alloh sizni to'g'ri yo'ldan adashtirmasin! Yahudiydan boshla!", dedingizmi,



dedi. Shunda u zot: Men Rasululloh sallollohu alayhi va sallamdan qo'shniga yaxshilik qilish haqida juda ko'p eshitganman, hatto qo'shniga meros berishni tayinlasalar ham kerak, degan xayolga ham borganmiz, dedilar.

Imom Buxoriy o'z kitoblarida rivoyat qilishlaricha, Rasululloh sallollohu alayhi va sallam vafot etgan vaqtlarida sovuqlari bir yahudiyni qo'lida garov evaziga berilgan edi. Nabiy sallollohu alayhi va sallamning sahobalari U zot uchun jonni mollarini fido qilgan insonlar edi. Ular ichida Usmon ibn Affon va Abdurahmon ibn Avf raziyallohu anhumo kabi boy sahobalar ham bor edi. Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning birgina ishoralari bilan bor budlarini U zotning oyoqlari ostiga olib kelib tashlar edilar. Lekin shunday bo'lsa-da Rasululloh sallallohu alayhi va sallam o'zga din vakilidan qarz olganlar. Buning sababi o'zlari namuna bo'lib jamiyat birdamligi uchun ular bilan qanday muomalada bo'lish kerakligini ummatlariga ko'rsatib berganlar.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom boshqa din va e'tiqod vakillariga nisbatan bag'rikeng bo'lish, ularning e'tiqodini hurmat qilish, haqlariga rioya etishning oliy namunasini ko'rsatibgina qolmay, ummatni hamisha ana shu yo'ldan borishga da'vat qilishdan charchamadilar. Rasululloh sallallohu alayhi va sallamdan rivoyat qilingan hadisda "Xalqning barchasi Allohning izmidadir. Ularning Allohga mahbubrog'i ahliga naf beruvchirog'idir", deyilgan (Bazzor rivoyati).

Sohibqiron Amir Temur ham o'z "Tuzuk"larida: "Mening qo'l ostimdagi qirq aymoq hammasini teng ko'rdim. Barlosni tatardan, tatarni naymandan, naymani yuzdan ustun qo'ymadim. Barcha muvaffaqiyatlarim garovi shundadir" deb yozgan.

Demak, Qur'oni karim musulmon mamlakatlarida boshqa dinlarga nisbatan munosabat va diniy e'tiqod erkinliklari masalalarida asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Shunday ekan, bundan islomning boshqa diniy e'tiqoddagi kishilarga nisbatan insonparvar, adolatparvar ekanini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston zaminida qadim zamondan islom dini bilan boshqa dinlar yonma-yon yashab, rivojlanib va bu jamiyatning ma'naviy yuksalishiga muayyan hissa qo'shdi. Istiqol yillarida vijdon erkinligi, din va dindorlarning haq va xuquqlari masalalariga katta e'tibor berildi. Yurtimizda fuqarolar totuvligi va tinchligini saqlashda har bir din va millat teng huquq hamda imkoniyatlarga ega bo'lishi juda muhimdir. Shuni e'tiborga olgan holda, mamlakatimizning amaldagi qonunchiligi fuqarolar erkinliklarining barcha ko'rinishlarini kafolatlaydi. Chunonchi, bosh Qonunimizda belgilab qo'yilgan tamoyillar dinimiz ta'limoti asoslariga ham to'la mos keladi.

Konstitutsiyamizning 18-moddasida: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar", deb ko'rsatilgan. Bu Asosiy qonunda shunchaki belgilanmasdan, amalda ham namoyon bo'lmoqda. Buni nafaqat jamiyatning har bir fuqarosi his qilmoqda, ayni paytda jahon hamjamiyati e'tirof etmoqda, o'zbek modelining mazkur masaladagi tajribasidan namuna olmoqda. Bu bejiz emas. Chunki mamlakatdagi tinchlik va barqarorlikning asosiy omillaridan biri murosa tamoyili bo'lgan diniy bag'rikenglikdir.

Muhokamalar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev siyosati tufayli Konstitutsiyaning 28-moddasida mustahkamlangan insonning shaxsiy huquq va erkinliklarini amalga oshirishi uchun keng qulayliklar tug'ildi. Ya'ni, yurtdoshlarimizning xorijiy mamlakatlarga chiqishi osonlashdi. Chet el safarini istaganlar uchun stiker olish tartibi bekor qilinib, o'rniga «qizil pasport» joriy qilindi.

Hozirgi kunga kelib, respublikamizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Turli millat va elat vakillari uchun esa bir qancha milliy-madaniyat markazlari faoliyat yurgazib kelmoqda. Mana shunday ko'p millatli respublikamizda jami 2276 ta diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan 2093 tasi musulmon tashkiloti, 166 ta xristian tashkiloti, 8 ta yahudiy jamoasi, 6 ta Baxoiylik jamiyati, 1 ta krishnachilar jamiyati va 1 ta budda ibodatxonasi, shuningdek, O'zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonda barcha diniy tashkilotlarga qonun doirasida teng sharoit yaratib berilgan. Ularning qonunga mos istaklari ro'yobga chiqarilmoqda. Hech kimga sir emaski, bugungi kunda turli dinlar va madaniyatlarga mansub davlatlar



o'zaro yaqinlashmoqda. Bu hol ular orasidagi ijtimoiy, madaniy va diniy sohalardagi doimiy muloqotlarni taqozo etmoqda.

Ta'kidlash joizki, Uchinchi Renessans tomon ildam harakat qilayotgan Yangi O'zbekiston davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri ham nafaqat mamlakatda, balki butun dunyoda dinlararo muloqot va bag'rikenglik muhitini o'rnatishga da'vat qilish, bu yo'lda bor kuch-g'ayratini safarbar qilishdan iborat. Xususan, kuni kecha Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida so'zlagan nutqida butun dunyo e'tiborini diniy bag'rikenglik tamoyilining xalqlar va davlatlar taraqqiyotida naqadar muhim ahamiyat kasb etishiga, ksenofobiya, ya'ni diniy sig'dirolmaslik illatining jamiyat tanazzuliga sabab bo'luvchi tushuncha ekanligiga qaratdi. Darhaqiqat, islom dinida o'zga din vakillariga nisbatan mehr-muruvvatli bo'lish, ularning joni va moliga zarar yetkazmaslik, do'stona munosabatlar har doim ulug'lanib kelingan.

Shu nuqtai nazardan yurtboshimiz tomonidan BMT minbaridan turib aytilgan diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasidagi takliflar islomning asl mohiyatini noto'g'ri talqin qiluvchilarga qarshi ma'rifat asosida kurashishda, jamiyatda bag'rikenglik va tolerantlik muhitini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi: "Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentalitetining asosini tashkil etadi".

YUNESKO Bosh konferensiyasining 1995 yil 16 noyabrdagi 28-sessiyasida qabul qilingan Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi dunyoda tinchlik va totuvlikni ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini kafolatlash, teng huquqlilik hamda o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish yo'lidagi muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda. Binobarin, Deklaratsiyada ta'kidlanganidek, har bir inson ta'lim olish huquqiga ega va ta'lim inson shaxsi va qadr-qimmatini har tomonlama rivojlantirishga, barcha shaxslarga erkin jamiyatning foydali ishtirokchisi bo'lishiga imkon berishi va barcha millatlar, barcha irqiy, etnik yoki diniy guruhlar o'rtasida o'zaro tushunish, bag'rikenglik va do'stlikni rivojlantirishga, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlik va xavfsizlikni saqlash, taraqqiyot va inson huquqlarini rag'batlantirish bo'yicha ishiga ko'maklashishi lozim. Bosh Assambleya a'zo davlatlarni din yoki e'tiqod erkinligiga rioya qilish va uni kafolatlashga, din yoki e'tiqod erkinligi masalalarida bir-birini tushunish, sabr-toqatli va o'zaro hurmat qilishga ko'maklashishga hamda din yoki e'tiqoddan BMT ustaviga va BMTning boshqa tegishli hujjatlariga xilof bo'lgan maqsadlarda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslikka da'vat etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining qaroriga ko'ra, 1997 yildan buyon mazkur hujjat qabul qilingan sana, 16 noyabr – har yili butun dunyoda "Xalqaro bag'rikenglik kuni" sifatida nishonlab kelinadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad dunyo xalqlarini bag'rikenglikka, tinchlikni asrab-avaylashga hamda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka erishishga chorlashdir.

BMT Bosh Assambleyasi 2018-yilning 12-dekabr oyida o'tkazilgan yalpi majlisda «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qildi. O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat loyihasi BMTning barcha a'zo davlatlari tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi. Mazkur rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi 2017-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkdagi 72-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surildi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida so'nggi 3 yil davomida diniy bag'rikenglikni ta'minlash sohasida bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Taraqqiyot strategiyasi doirasidagi yettita ustuvor yo'nalishning har biri bo'yicha amalga oshiriladigan eng muhim vazifalar inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini har tomonlama ta'minlashga, bir so'z bilan aytganda, "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyilni to'la ro'yobga chiqarishga qaratilgan. O'zbekiston Prezidenti ta'kidlaganidek, "Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz".



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, shuningdek, diniy-ma‘rifiy sohaning samaradorligini oshirishga munosib hissa qo‘shgan davlat va jamoat tashkilotlari xodimlarini rag‘batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori asosida “Diniy bag‘rikenglik” ko‘krak nishoni ta‘sis etildi. O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi ko‘krak nishonini har yili 16-noyabr — Xalqaro bag‘rikenglik kuni arafasida tantanali ravishda topshiriladi. Ko‘krak nishoni bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining vijdon erkinligi kafolatlarini ta‘minlash borasidagi katta xizmatlari, aholi o‘rtasida dinlararo va konfessiyalararo hamjihatlik, totuvlik va bag‘rikenglikni mustahkamlash, diniy-ma‘rifiy sohadagi islohotlarni targ‘ib etish, jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini saqlash yo‘lidagi ko‘p yillik samarali mehnati uchun atoqli davlat va jamoat arboblari, diniy-ijtimoiy sohadagi rahbarlar va yetuk ulamolar, davlat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlar xodimlari, xalqaro tashkilotlar, diplomatik vakolatxonalarning vakillari, xorijiy arboblar va olimlar taqdirlanadi.

Xalqimiz odamiylik, insonni qadrlash, mehr-oqibat, bag‘rikenglik kabi ezgu fazilatlarni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab, necha-necha avlodlarga bezavol yetkazib kelmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida izchil amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar xalq hayotini, dunyoqarashini, turmush tarzini o‘zgartirmoqda.

Jamiyatimizda “Yangi O‘zbekistonni birgalikda quramiz” degan yuksak maqsad shakllantirilib, “Jamiyat — islohotlar tashabbuskori” degan yangi tamoyil kundalik faoliyatning asosiga aylandi. Bugungi kunda mamlakatimizda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari qayd etganidek, “Biz ushbu strategiyada yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini eng oliy qadriyat etib belgiladik. Ta‘kidlash kerakki, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi. Biz bundan buyon faoliyatimizni “inson – jamiyat – davlat” degan yangi tamoyil asosida tashkil etamiz”.

Xulosalar.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, bag‘rikenglik va osonlik Islom shariatining eng ulkan maqsadidir. Bu ma‘noni ta‘kidlovchi hujjat va dalillar ko‘p. Bag‘rikenglik inson tabiatiga bog‘liq narsadir. Alloh insonni xuddi shu tabiat ila yaratgan. Insonning sof tabiati shiddat va qiyinchilikni yoqtirmaydi. U doimo osonlik va yumshoqlikka moyil bo‘ladi. Alloh taolo: «Agar qo‘pol, qalbi qattiq bo‘lganing-da, atrofingdan tarqab ketar edilar», degan (Oli Imron. 159-oyat).

O‘zbekiston – ko‘pmillatli mamlakat. Zero, shu aziz Vatan – barchamizniki. Bu zaminda asrlar mobaynida turli millat va elat vakillari qo‘lni-qo‘lga berib, yelkama-yelka yashab kelmoqda. Yurtimizda millatlararo totuvlik, dinlaraaro bag‘rikenglik muhiti hukmron.

“Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi”da ta‘kidlanganidek, “bag‘rikenglik bo‘lmasa tinchlik bo‘lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot bo‘lmaydi. Qaysi jamiyatda diniy bag‘rikenglik tamoyillari hayotda o‘z talqinini topsa, o‘sha jamiyatda o‘zaro hurmat va samimiyat qaror topib, barcha insonlar tinch va osoyishta hayot kechiradilar. Tinchliksiz taraqqiyot va farovonlik bo‘lmagani kabi diniy bag‘rikengliksiz tinchlik barqaror bo‘lmaydi”.

O‘zbekiston ko‘plab xalqaro tashkilotlar va jahon davlatlari bilan keng ko‘lamli hamkorlikni amalga oshirmoqda. Shu tariqa yurtimiz hayotbaxsh islohotlari, demokratik o‘zgarishlar yo‘lida sobitqadamligi, mustaqil ichki va tashqi siyosati bilan dunyo xalqlarining hurmat-e‘tiboriga sazovor bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur‘oni Karim
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi



3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi F-4948 “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017 yil 14 fevral
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-60 “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022 yil 28 yanvar
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Tafsiri Hilol”
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Islom tarixi”
7. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari: o‘quv qo‘llanma/ Toshkent, “Movarounnahr”, 2016.

